

**AXBOROT OLISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQIY ASOSLARI**

Otabek Abdumalikov

Toshkent davlat yuridika universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi yo'nalishi talabasi

oabdumalikov892@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tezisda axborot olishning raqamli texnologiyalar asrida nechog'lik muhim ahamiyat kasb etishini o'rganadi. O'zbekiston Respublikasida axborot olishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari keltirilib, respublikada axborot olish, shaffoflikni, oshkoralikni va so'z erkinligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati tahlil qilinadi. Tezisdan shuningdek, xalqaro qonunlarning jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining bu masalada ustuvor vazifalari va uning respublika miqyosida qo'llab-quvvatlash choralari muhokama qilinadi. Natijada, fuqarolik jamiyatida axborot olish bo'yicha huquqiy imkoniyatlar va mavjud muammolar haqida xulosa chiqariladi.

Kalit so'zlar: axborot, shaffoflik, so'z erkinligi, oshkoralik, xalqaro qonunlar, milliy siyosat, Raqamli O'zbekiston - 2030, O'zbekiston - 2030 strategiyasi, qonuniy asos, huquqiy imkoniyatlar, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, inson huquqlari.

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВАЯ ОСНОВА ПРАВА НА ИНФОРМАЦИЮ

Отабек Абдумаликов

Ташкентский государственный юридический университет

Факультет магистратуры и заочного образования

Студент факультета права СМИ

oabdumalikov892@gmail.com

Аннотация: в данной научной диссертации рассматривается важность поиска информации в эпоху цифровых технологий. Представлены конституционно-правовые основы получения информации в Республике Узбекистан, проанализирована государственная политика, проводимая в республике по обеспечению доступа к информации, прозрачности, открытости и свободы слова. В диссертации также рассматриваются приоритетные задачи Организации Объединенных Наций в этом вопросе, включая международное право, и меры ее поддержки на республиканском уровне. В результате делается вывод о правовых возможностях и существующих проблемах получения информации в гражданском обществе.

Ключевые слова: информация, прозрачность, свобода слова, открытость, международное право, национальная политика, «Цифровой Узбекистан - 2030», стратегия «Узбекистон - 2030», правовые основы, правовые возможности, Организация Объединенных Наций, права человека.

CONSTITUTIONAL LEGAL FOUNDATIONS OF THE RIGHT TO INFORMATION

Otabek Abdumalikov

Tashkent State Law University

Faculty of Master's and Correspondence Studies

Student of the Department of Mass Media Law

oabdumalikov892@gmail.com

Abstract: *this scientific thesis studies the significance of information access in the age of digital technologies. It outlines the constitutional and legal foundations of information access in the Republic of Uzbekistan and analyzes the state policy aimed at ensuring information access, transparency, openness, and freedom of speech in the country. The thesis also discusses international laws, including the priority tasks of the United Nations in this area and the measures taken to support them at the national level. As a result, conclusions are drawn regarding the legal opportunities for information access and the existing problems within civil society.*

Keywords: *information, transparency, freedom of speech, openness, international laws, national policy, Digital Uzbekistan - 2030, Uzbekistan - 2030 strategy, legal basis, legal opportunities, United Nations, human rights.*

Mavzuning dolzarbligi. Axborot - uni uzavtuvchi manbaida qat'iy nazar, video, yozuv, audio va vizual ko'rinishdagi har qanday ma'lumot tushuniladi. Uni

izlash, olish, foydalanish va tarqatish huquqi insoning shaxsiy huquq va erkinligi hisoblanib, xalqaro va milliy qonunchilikda qat'iy belgilangan. Insoniyat texnologiyalar davrida har kuni internet, televidenie, radio va matbuot orqali turli xildagi axborot va ma'lumotlarni iste'mol qiladi. Zamonaviy dunyoda, axborotsiz hayotimizni hech qaysi sohasini tasavvur qilib bo'lmaydigan darajaga yetib kelindi. Iqtisod, siyosat, sanoat, san'at, ta'lim va yana har qanday soha bo'lmasin, axborot almashinuvisiz faoliyatni to'laqonli va samarali olib borish deyarli imkonsiz bo'lib bormoqda. Insonlarni, davlat tashkilotlari, muassasalar va yirik sohalarni jadal rivoj topishida, xabardorlikni oshirishda, shaxsiy rivojlanish va sohalararo kommunikatsiya ko'prigi sifatida axborot, ma'lumotlar almashinuvi asosiy funksiyani bajarmoqda. Shu sababli, xalqaro va milliy qonunchilikda, axborot shaffofligi va so'z erkinligini ta'minlash bo'yicha chuqur chora-tadbirlar ko'rilmogda. Oshkoralik, ochiqlik siyosati davlatning jahonga yuz tutishida birdan-bir manbai sifatida qaralmogda. Ushbu maqsad yo'lida, O'zbekiston Respublikasida huquqiy hujjatlar nazariy va amaliy jihatdan takomillashtilib, uning ijrosi bo'yicha strategik qadamlar tashlanmogda. Masalan, yurtimizda axborot olishni erkinligini ta'minlash maqsadida bir qator qonun hujjatlari ishlab chiqildi. Shulardan, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunni misol qilib olsak bo'ladi. Bu qonuniy hujjatda axborot olish nima ekanligi, uning turlari, foydalanish va tarqatish mumkin bo'lmagan axborotlardan tortib, axborot olishni va uning erkinligini ta'minlovchi normalar belgilangan. "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonunga nazar tashlaydigan bo'lsak, axborot olish insonlarning shaxsiy huquqi ekani, to'siqlarga uchrashining oldini olish, bizning ushbu shaxsiy huquqiy erkinligimizga daxl qilib bo'lmasligi haqida aniq

qoidalar belgilanganini ko'rishimiz mumkin. Undan tashqari axborot olish va tarqatish juda ham nozik jarayon ekani, u aslida sovuq qurollardan ham katta ta'sir doiraga ega ekani, davlat yaxlitligiga, uning chegraviy birligiga, uning ichida istiqomat qilayotgan fuqarolar hayotiga ham katta ta'sir va zarar yetkazib qo'yishi mumkinligi haqida ogohlantiruvchi huquqiy hujjat "Davlat sirlari to'g'risida"gi qonunni ham aytib o'tish shart. Ushbu hujjatni ilmiy ish mobaynida o'rganar ekanmiz, unda tarqatish mumkin bo'lmagan va faqatgina zaruriy holatlarda xabardor bo'lish va foydalanish mumkin bo'lgan axborotlarni ham ko'rishimiz mumkin. O'rganishlarimiz davrida shuni tushunib yetdikki, axborotlar xususiyati va xarakteriga ko'ra, konstruktiv va destruktiv turlarga bo'linar ekan, ya'ni bunyodkor va vayronkor axborotlar. Mana shunday axborotlardan foydalanishda juda ham ehtiyotkor bo'lish to'g'risida ham yuqoridagi uch qonunlarda qisman to'xtalib o'tilgan. Demak, axborot olishda axborot madaniyati degan tushuncha fuqarolik jamiyatimizdagi yana bir dolzarb masala ekani oydinlashib qoldi. Hali axborotga to'yinmagan jamiyatimiz, har qanday axborotni iste'mol qilishi, uning tub g'oya va mohiyatini tushunmasligi, bilib-bilmay axborotning manipulatsion xususiyatidan aziyat chekib qolishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Bu esa, fuqarolarning shaxsiy erkinligi hisoblanmish axborot olish huquqining buzilish holatlariga ham olib kelishi mumkin. Axborotdan foydalanish emas, avvalo to'g'ri foydalana olish, bizning shaxsiy huquqimiz ta'minlanishining asosiy omili degan xulosaga keldik.

Undan tashqari, "O'zbekiston – 2030" va "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyalarida ham aynan shu masala dolzarb mavzu sifatida qaralgan bo'lib, uning 96-qismida "Fuqarolarning axborotni erkin izlash, olish va tarqatishga doir

huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini yanada kuchaytirish" muhim vazifa etib belgilangan. Davlat va jamiyat o'rtasidagi ko'prik ham aslida axborot. Axborotni erkin olish orqali jamiyatning umumiy savodxonlik va bilim darajasi ham oshadi. Bilamizki, axborot jamiyati sohalarning boshqaruv va rivojlanish unsuri desak bo'ladi. Axborot - istalgan soha faoliyatini aks ettiruvchi, avvalgi holati haqida ma'lumot beruvchi va kelgusi faoliyatini belgilashda muhim vazifa kasb etadi. Shuning uchun ham, jamiyatning har bir bo'g'ini, fuqarolar, amaldorlar, mansabdorlar va turli soha vakillariga qadar axborot iste'moli ularning ma'nan va aqlan tafakkurini oshirishiga, rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Shuning uchun, Axborot olish kafolatlari to'g'risidagi qonunning 4-moddasida, "Axborot olish erkinligining asosiy prinsiplari, axborotning oshkoraligi, hamma olishi mumkinligi, ochiqligi va haqqoniyligidan iborat", deb belgilangan. Agar sohalararo va davlat tashkilotlari bilan fuqarolar o'rtasida axborotlar almashinuvida uzilish bo'lsa, axborot aylanmasi to'xtab qolsa, fuqarolar avvalo davlat, so'ngra jamiyatdagi vaziyat haqida to'liq xabardorlikni yo'qotadi. Hamda davlat tuzumiga nisbatan ikkilanishlar, uning boshqaruviga va siyosatiga nisbatan ishonchsizlikni olib kelishi muqarrar. Ishonchsizlik tushunchasiga ko'pchilik bee'tiborlik bilan yondashadi. Aslida, bu ziddiyatli vaziyatni keltirib chiqaradi, davlat boshqaruvini izdan chiqaradi. Masalan, yopiqlik siyosati qo'llanilib, axborot olish va tarqatishga nisbatan senzura qo'llanilsa, fuqarolar o'z jamiyatida qanday siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy holatni bilmasa, unda tashqi kuchlar yolg'on (fake) axborot bilan axborot hurujlari uyushtirishga harakatlar boshlashadi. Yolg'on axborotlarning manipulatsion kuchi anchayin salmoqli bo'lgani uchun ham, jamiyat asil vaziyatdan xabardorlikka ega emasligi sababi

tufayli ham aldanadi. Axborot orqali jamiyat boshqarish va to'g'ri nazorat qilish ham mumkin. Shu sababli bu shaxsiy erkinlikning ta'minlanishi uchun xalqaro hamjamiyat doimiy chora-tadbirlar ishlab chiqadi uni keng ko'lamda tadbir qilishga urinadi. Bunda, davlatlarga ham takliflar berib, ularni qo'llab-quvvatlashga chaqiradi.

Dunyo hamjamiyati va milliy bosh qomusimiz ham aynan shu masalada yakdil ekanini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi, 2011-yil BMT rezolutsiyasi, ushbu xalqaro hujjatlardagi umumiylik aynan axborot olish kafolati to'g'risidagi qonunlarda mujassam bo'lgan. Masalan, ularda shunday bandlar bor: " Har bir inson axborot va g'oyalarni har qanday vosita bilan davlat chegaralaridan qat'iy nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi". Ushbu fikrlarning milliy qonunchiligimizdagi ifodasini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham ko'rishimiz mumkin. Uning 33-moddasida, "Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega" asosiy ma'no shundan iborat bo'lsada, qo'shimcha sifatida davlat internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratishi zarurligi va faqatgina axborotdan davlat tuzumiga, uning siyosati va yaxlitligiga, jamoat xavfsizligiga, uning tartibini buzishga urinishlar bo'lgandagina cheklovlar belgilangan tartib qoidalar asosida amalga oshirilishi ham qo'shimcha qilingan. Konstitutsiyamizga ko'ra, axborot olish erkinligi, bu bizning shaxsiy huquq va erkinliklarimiz toifasiga kiritilgan. Bu ham aslida axborot olish insonlar, ularning shaxsiy hayotlarining ajralmas qismi ekanini bildiradi. Axborot ochiqligiga va davlat idora va tashkilotlar faoliyatini shaffof

qilish maqsadida 2016-yildan buyon strategik harakat olib borilayotganini tadqiqot davomida aniqladik. Ya'ni, yurtimizda keng ko'lamda axborot tarqatishni yaxshilash maqsadida, ro'yxatdan o'tgan OAVlar sonini oshirish ustuvor vazifa qilingan edi. 2016-yilda OAVlar soni 1514 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib, naqd 2140 tani tashkil etgan, ya'ni 41%lik o'sishga erishilgan. Eng ko'p ro'yxatdan o'tish internet nashrlarga to'g'ri kelib, ular 88%lik o'sish bilan 745 ta ro'yxatdan o'tgan OAVlarni tashkil qilgan. Yana ushbu ko'rsatgich 2024-yilga kelib, 2349 taga yetganiga guvoh bo'lingan. Ushbu ma'lumot esa "Xalqaro hamkorlik tashabbuslari haftaligida" e'lon qilinishi esa, yuqoridagi fikrimiz to'g'riligiga, ya'ni xalqaro hamjamiyat va yurtimiz siyosati bu borada hamfikir ekaniga misol bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inson huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrda 217 A (III) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan. - URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml.
2. Inson huquqlari bo'yicha Evropa konvensiyasi. 4-noyabr 1950-yil imzolangan: https://uz.wikiaro.ru/wiki/European_Convention_on_Human_Rights.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 01.05.2023 dan kuchga kirgan: <http://lex.uz//uz/docs/-6445145>.
4. Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'irisida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.04.1997 yildagi 400-I-son: <http://lex.uz//docs/-1319>.

5. Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.12.2002 yildagi 439-II-son: <http://lex.uz//docs/-52268>.
6. Davlat siri to'g'risidagi qonun. 27.12.2024 yildagi O'RQ-1016-son: <http://lex.uz//ru/docs/-7282637>.
7. O'zbekiston - 2030 strategiyasi. 11.09.2023 yildagi PF-158-son farmoni: <http://lex.uz//ru/docs/-6600413>.
8. Raqamli O'zbekiston - 2030 5.10.2020 yildagi PF-6079-son farmoni: https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/raqamli_uzbekiston-2030_strategiyasi_qabul_qilindi.
9. Royxatdan o'tgan OAV statistikasi 2016-2023. Internet nashr: <https://m.aniq.uz/uz/y/173205/t>.
10. Ro'yxatdan o'tgan OAVlar statistikasi 2016-2024. Internet nashr: <https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/23/newspapers/>.